

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar bo'yicha ovoz berish yakunlari (14.02.2025)

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/disclosure/shareholder-meeting/o-zkimyosanoat-aksiyadorlik-jamiyati-14-02-2025>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar bo'yicha ovoz berish yakunlari

Yig'ilish o'tkazilgan joy: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy.
Yig'ilish o'tkazilgan sana: 14.02.2025-yil.

1. Sanoq komissiyasi a'zolari soni 3 (uch) kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

J. Raximov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i;

M. Xasanova – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassisi;

D. Ziyodov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi reglamenti quyidagi tartibda tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlari uchun – 10 daqiqagacha;

- qo'shimcha nutq va munozaralar uchun – 5 daqiqagacha;

- ovozlarni hisoblash uchun tanaffus – 5 daqiqa.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

3.1. Mustafayev Jaxongir Ibodullayevich "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining moliya-iqtisodiyot va transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari lavozimiga tayinlansin va u bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasi uch yil muddatga tuzilsin.

3.2. Jamiyat nomidan boshqaruv raisining moliya-iqtisodiyot va transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi J. Mustafayev bilan mazkur bayonnoma qarorining 3.1-bandida nazarda tutilgan muddatga mehnat shartnomasini imzolash vakolati kuzatuv kengashi raisiga berilsin.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.